



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-mart

122-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–71-son qarori ijrosi haqida”gi 118-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining belgilangan tartibda turarjoy bilan ta’minlanmagan harbiy xizmatchilarining turarjoy ta’minotini yaxshilash orqali ularni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ–71-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 118-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 118-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ–71-son qarori bilan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilganligi:

2025-yil 1-martdan boshlab harbiy xizmatchilarga turarjoyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun to‘lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdorini 20 foizga oshirish;

2025-yil 1-iyundan boshlab qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ipoteka kreditlarini ajratish ko‘rsatkichlari asosida uy-joy bilan ta’minlanadigan, kalendar hisobida o‘n yildan ortiq harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish (qurish) uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdorini uy-joy hisoblangan qiymatining 35 foizi miqdorida belgilash;

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning asoslangan so‘rovnomalarga muvofiq ularning harbiy xizmatchilariga turar joyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasining oshirilgan to‘lovlari bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar uchun 2025-yilda Davlat budjetidan zarur mablag‘lar ajratish, 2026-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida ko‘zda tutilishini ta’minlash topshirilganligi;

Mudofaa vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish yuklatilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Mudofaa ishlari bo'limi (U.Mirzakarimov), tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-71-son qarori talablari asosida ish tashkil etsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov